

## Nazorat va profilaktika boshqarmasi

### asosiy vazifalari:

a) davlat yong'in nazorati va yong'inlar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha DYoN organlari tizimiga rahbarlik qilish;

b) davlat yong'in nazorati va yong'inlar profilaktikasining amalga oshirilishini tashkil qilish;

v) tergovga qadar tekshiruv va ma'muriy amaliyotni nazorat qilish, shuningdek, yong'inlar va ularning oqibatlari bo'yicha statistikani yuritish;

g) yong'in xavfsizligi talablarini me'yoriy jihatdan tartibga solish;

d) aholiga yuz berishi mumkin bo'lgan yong'inlar va ular oqibatlarining oldini olish bo'yicha kompleks yordam ko'rsatish, aholi bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash va kengaytirish.

### funksiyalari:

a) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni joriy va istiqbolda rejalashtirishni amalga oshiradi;

DYoN organlarining faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ishlar holatini o'rganadi va tahlil qiladi, ularni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qiladi;

DYoN organlari bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ular ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi;

DYoN organlari mansabdor shaxslarining malaka talablari va ularning kasb layoqatini baholashning reyting tizimini belgilaydi, shuningdek, baholash natijalarini umumlashtiradi va tahlil qiladi.

b) respublika davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolar tomonidan yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat yong'in nazoratini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik va boshqa chet el vakolatxonalarining so'roviga binoan ular tomonidan egallab turilgan hudud, bino va inshootlarning yong'inga qarshi holatini belgilangan tartibda tekshiradi;

turli tashkilotlar tomonidan yong'in xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha o'tkaziladigan qo'shma xalqaro konferensiya, seminar, yig'ilish va ilmiy-texnikaviy kengashlarda ishtirok etadi;

v) sodir bo'lgan yong'inlar yuzasidan surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazishda tergov organlariga ko'maklashadi;

DYoN organlari mansabdor shaxslari tomonidan yong'in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy jarimalar to'g'ri qo'llanilganligi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

respublika bo'yicha yong'inlar va ularning oqibatlari to'g'risidagi davlat statistik hisobotini yuritadi;

avtomatlashtirilgan axborot tizimining ("Yong'inlar hisobi" AAT) kuzatib borilishini (texnik jihatdan qo'llab-quvvatlanishi) amalga oshiradi;

g) mustaqil ravishda yoki davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda yong'in xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishni tashkil etadi;

d) o'rnatilgan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning yong'in nazorati va profilaktikasini amalga oshirish, yong'in holatlari hamda ma'muriy ish yuritish bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazish masalalariga oid murojaatlarini ko'rib chiqadi;

jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli hudud, bino (xona) va inshootlarning yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.